https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tursunov Sanjar Baxtiyarovich
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
+998908088834
sanjartursunov796@gmail.com

KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Kichik iqtisodiy zonalar nafaqat muayyan hududda iqtisodiy rivojlanishga impuls beruvchisi, balki butun mamlakat miqyosida innovatsion taraqqiyot va yuqori samaradorlikka asos bo‘luvchi zamonaviy istiqbolli mexanizm hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari o‘z iqtisodiy siyosatida kichik iqtisodiy zonalar tashkil etishga, ularning faoliyati uchun maxsus huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat bermoqda. Buning zamirida, xususan, kichik biznes va tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ilg‘or texnologiyalar va sarmoyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini kengaytirish kabi dolzarb maqsadlar mujassam.

Kalit so'zlar: kichik iqtisodiy zonalar, xorijiy tajriba, O‘zbekiston, sanoat zonalari, innovatsion rivojlanish, investitsiya muhiti, hududiy taraqqiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilma, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: Малые экономические зоны являются не только импульсом экономического развития в конкретном регионе, но и современным перспективным механизмом, обеспечивающим основу для инновационного развития и высокой эффективности в масштабах всей страны. Сегодня многие развитые и развивающиеся страны мира придают особое значение созданию малых экономических зон в своей экономической политике, формированию особых правовых и экономических условий для их деятельности. Это обусловлено такими актуальными целями, как, в частности, стимулирование развития малого бизнеса и предпринимательства,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

создание новых рабочих мест, привлечение передовых технологий и инвестиций, а также расширение экспортного потенциала.

Ключевые слова: малые экономические зоны, зарубежный опыт, Узбекистан, промышленные зоны, инновационное развитие, инвестиционная среда, региональное развитие, развитие предпринимательства, инфраструктура, экономические реформы.

Abstract: Small economic zones are not only an impetus for economic development in a specific region, but also a modern promising mechanism that provides the basis for innovative development and high efficiency throughout the country. Today, many developed and developing countries of the world attach special importance to the establishment of small economic zones in their economic policies, the creation of special legal and economic conditions for their activities. This is based on such urgent goals as, in particular, stimulating the development of small business and entrepreneurship, creating new jobs, attracting advanced technologies and investments, and expanding export potential.

Keywords: small economic zones, foreign experience, Uzbekistan, industrial zones, innovative development, investment environment, regional development, entrepreneurship development, infrastructure, economic reforms.

KIRISH

Xorijiy amaliyotda kichik iqtisodiy zonalar turli jabhalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ushbu zonalar tashkil topgan hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, eksportga yo‘naltirilgan zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqariladi, servis xizmatlari, logistika, texnoparklar va madaniy infratuzilmani rivojlantirishga turtki beriladi. Kichik iqtisodiy zonalar ko‘p holatlarda klaster tipida, ya’ni ma’lum yo‘nalishdagi, masalan, kimyo, farmatsevtika, yengil sanoat, agrosanoat, IT va boshqa sohalarga ixtisoslashgan holda faoliyat yuritadi. Bu esa, zonalardan samaradorlikni oshirish va o‘zaro kooperatsiyani kuchaytirish imkonini ochadi. Ushbu mexanizmning muhim jihati

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

shundan iboratki, kichik iqtisodiy zonalar orqali hududiy islohotlar, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari hayotga joriy etiladi. Bunday zonalarda odatda soddalashtirilgan soliqlar, bojxona imtiyozlari, sarmoyadorlar uchun preferensiyalar, infrastrukturaviy qulayliklar va xorijiy investorlar uchun kafolatlangan huquqiy muhit yaratiladi. Kapital aylanmasining tezkorligi, ishbilarmonlik muhiti, tezda yangi loyihalarni boshlash imkoniyati va raqobatbardoshlik kuchayishi bu hududlarning qator afzalliklari hisoblanadi. Bundan tashqari, kichik iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan zamonaviy boshqaruv boshqacha yondashuvlarni, masalan, “yagona darcha” tamoyili asosidagi xizmatlarni, tezkor yechimlarni va soddalashgan tartib-taomillarni ta’minlashga qaratiladi. Bu jihatlar ham hududda tadbirkorlarning faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xorijiy mamlakatlardagi tajribalarni o‘rganar ekanmiz, kichik iqtisodiy zonalar faoliyatida innovatsion boshqaruv, ilg‘or integratsiya, xorijiy investitsiyalar uchun maqsadli muhit yaratilgani, xalqaro sarmoya oqimini jalb etishga katta e’tibor berilgani ko‘rinadi. Bu kabi hududlarda yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalardan tortib, kichik zamonaviy startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimigacha joriy etilgan. Zonalarda tadbirkorlik muhitining ochiqligi, byurokratik to‘siqlarning kamaytirilishi, texnologik va moliyaviy ko‘mak xizmatlarining kengaytirilgani taraqqiyotga turtki bo‘lgan. Shu bilan birga, kichik iqtisodiy zonalarda moliyaviy ko‘mak mexanizmlari, biznesni boshqarish bo‘yicha konsalting xizmatlari, malakali kadrlardan foydalanish imkoniyatlari rivojlangan. Dunyodagi ilg‘or tajribelarni chuqur tahlil qilgan holda aytish mumkinki, kichik iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyati ularning huquqiy asoslari, zamonaviy boshqaruv amaliyotlari, tadbirkorlik muhitining ochiqligi, infratuzilma qulayliklari hamda xalqaro kapital va ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish ko‘lamiga bevosita bog‘liq. Shu jihatdan, zamonaviy iqtisodiy zona modeli, ko‘plab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rivojlangan mamlakatlarda universallashgan normativ-huquqiy baza asosida samarali ishlamoqda. Xorijiy amaliyotda zonalarning huquqiy maqomi, litsenziyalash, soliqqa tortish, imtiyozlar, sarmoyaviy kafolatlar aniqligi yuqori ishonchni ta’minlaydi. Raqobatbardosh boshqaruv ham zamonaviy biznes tizimlarini jalb etishda asosiy rol o‘ynaydi [1].

Ayni jihatdan muhim jihat – bu kichik iqtisodiy zonalarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishga asoslanishi, zamonaviy texnologiyalar, startaplar va yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilishidir. Zonalarda faoliyat yuritayotgan biznes-sub’ektlari ko‘plab targ‘ibot, treninglar, konsalting xizmati, davlat dasturlari doirasida grantlar va sarmoya oqimiga ega. Bu esa nafaqat yangi loyihalarni boshlab, yangilanish va modernizatsiyani rag‘batlantirish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ko‘paytirish imkonini beradi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston sharoitida kichik iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, yoshlarning bandligini ta’minlash dolzarb ahamiyatga ega. Davlat tomonidan kichik va o‘rta biznes uchun imtiyozlar, yengilliklar, qadrsizlashtirilgan aktivlarni tadbirkorlik sub’ektlariga bo‘lib berish, sarmoyadorlar va eksportyorlarga qulayliklarni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda kichik iqtisodiy zonalar tarmog‘i faol kengaymoqda. Har bir yirik iqtisodiy hududda, yirik shaharlarda va chekka tumanlarda kichik zonalar tashkil qilinmoqda. Bu zonalar hududlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari vujudga keltirish, sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy kadrlarni ish bilan ta’minlash, eksportni rag‘batlantirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini ochmoqda. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida kichik iqtisodiy zonalarning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yilgan, soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi, bojxona imtiyozlari, zamonaviy infratuzilma va servis xizmatlari taklif qilinmoqda [3].

Bugungi real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kichik iqtisodiy zonalarni tizimli rivojlantirish orqali mahalliy mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, eksport hajmini oshirish, zamonaviy texnologiyalar importini rag‘batlantirish, yangi ishlab chiqarishlarni istiqlolga olib chiqish mumkin. Shu bilan birga, kichik zonalarda ishlab chiqarish, servis va madaniy infratuzilmani birgalikda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bunday zamonaviy mexanizm orqali O‘zbekistonning hududiy farovonligini oshirish, aholining ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalarni keng tatbiq etish maqsad qilingan. Yangi loyihalarni joriy etish, ilg‘or boshqaruv va zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish orqali kichik iqtisodiy zonalarda tezkor natijalar olish mumkin. Sohada tajribali mutaxassislarni jalb qilish, zamonaviy boshqaruv boshqaruviy yondashuvlar, xususiy sektor va davlatning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, xalqaro tashkilotlar va yirik investorlar bilan faol aloqalarni yo‘lga qo‘yish kabi yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kichik iqtisodiy zonalarning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, har bir hudud uchun alohida ixtisoslashuv, mahalliy resurslardan foydalanishni ko‘zda tutadigan dasturlar ishlab chiqilishi talab etiladi. O‘zbekiston sharoitida kichik iqtisodiy zonalarning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash, ishbilarmonlik muhiti ochiqligi va himoyasi, soliqqa oid yengilliklarni kengaytirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda sarmoyadorlar uchun kafolatlangan ishonchli muhit yaratish strategik ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or moliyaviy xizmatlarni joriy qilgan holda zonalarning amal qilinuvchi mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Shuningdek, kichik iqtisodiy zonalarning rivojlanish monitoringini turli mezonlar asosida samarali tashkil etish, hududlararo raqobat va kooperatsiyani

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rag‘batlantirish, innovatsion va integratsion loyihalarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishi muhim [4].

Kichik iqtisodiy zonalarda sarmoyadorlarni keng jalb qilish uchun marketing va axborot-targ‘ibot xizmatlarini rivojlantirish, investitsiya salohiyatini yuqori darajada namoyon qilish, yangi loyihalarga xizmat ko‘rsatuvchi kompleks infratuzilma yaratish, biznes uchun qulay ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni taklif etish lozim. Zamonaviy texnoparklar va innovatsion markazlar tarmog‘ini kengaytirish, startap g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes uchun arzon va sifatli kredit resurslarini taqdim etish orqali iqtisodiy zonalarni rivojlantirishga erishiladi. Toshkent shahri hamda mamlakatning yirik viloyatlarida zamonaviy innovatsion zonalar, texnoparklar, yangi biznes-muhit shakllanmoqda. Bu borada davlat va xususiy sektor hamkorligi, innovatsion va eksperimental loyihalar sinovi ko‘lamini kengaytirish ham muhim omil hisoblanadi.

Ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish uchun O‘zbekistonda kichik iqtisodiy zonalarga oid me’yoriy-huquqiy bazani xalqaro talablar asosida rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlash va muntazam qayta o‘qitish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish lozim. Tarjiba almashinuvlari, xorijiy investorlarni faol taklif etish, ilg‘or texnologiyalarni, jumladan, raqamli iqtisodiyot yechimlarini tatbiq qilish muhimligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, kichik iqtisodiy zonalarga elektron hukumat xizmatlarini joriy qilish, turli byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini oshirish orqali ham, zonalar faoliyatining samaradorligi ortadi [5].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlar tajribasidan ko‘rinib turibdiki, kichik iqtisodiy zonalar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot va innovatsion rivojlanishda eng istiqbolli va natijador mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston ham ushbu mexanizmni milliy sharoitga muvofiq joriy qilish va rivojlantirishda muhim imkoniyatlarga ega. Bunda asosiy e’tibor kichik iqtisodiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

zonalarning ilg‘or boshqaruv, soddalashtirilgan moliyaviy va huquqiy tartib-taomillar, investitsion muhit, zamonaviy infratuzilma, kadrlardan to‘g‘ri foydalanish, elektron davlat xizmatlari, innovatsion va integratsion loyihalar, mahalliy resurslardan unumli foydalanishga qaratilishi lozim. Mazkur yondashuvlar orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholining farovonligini ta’minlash va dunyo bozorida yetakchi o‘rinlarni egallash uchun mustahkam zamin yaratiladi. Kichik iqtisodiy zonalarning izchil rivojlanishi O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyotiga, barqaror iqtisodiy o‘sishiga va ijtimoiy barakotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdug‘aniev, S.R. (2018). “O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2(3), 72-78.

2. Abdullaeva, D. (2020). “Kichik sanoat zonalarida hududiy iqtisodiy islohotlar samaralari”. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, 9(2), 53-59.

3. Axmedova, N. (2021). “So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kichik iqtisodiy zonalar faoliyati va ularni dastaklovchi chora-tadbirlar”. Iqtisodiy tadqiqotlar, 13(1), 104-112.

4. Baxtiyorov, G.M. (2019). “Kichik va o‘rta biznes zonalari orqali sanoat salohiyatini oshirish omillari”. O‘zbekiston iqtisodiyoti va moliyasi, 5(4), 15-20.

5. Bozorov, K. (2020). “Kichik iqtisodiy zonalarda investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishning dolzarb masalalari”. Rivojlanayotgan iqtisodiyot, 6(3), 34-41.

6. Erkinov, Sh. (2021). “Xorijiy davlatlar tajribasida kichik iqtisodiy zonalar boshqaruvi: O‘zbekiston uchun darslar”. Zamonaviy fan va ta’lim, 10(2), 77-85.

7. G‘afforova, M. (2022). “Kichik biznes infratuzilmasi va iqtisodiy zonalar samaradorligi”. Iqtisodiy tahlil, 14(3), 49-56.